

## XALQARO HUQUQDA DAVLATLARNING ICHKI ISHLARIGA ARALASHMASLIK PRINSIPINING DOLZARBLIGI

Obidova Nodiraxon Oppoxo'ja qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti talabasi

[nodiraobidova@inbox.ru](mailto:nodiraobidova@inbox.ru)

ORCID: 0009-0000-2756-5827

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19852285>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi har tomonlama tahlil qilinadi. Unda mazkur prinsipning nazariy asoslari, xalqaro-huquqiy manbalardagi mustahkamlanishi hamda davlat suvereniteti va hududiy yaxlitlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi normalari asosida prinsipning huquqiy mohiyati ochib berilgan. Muallif tomonidan xalqaro sud amaliyoti, xususan "Nikaragua AQShga qarshi" hamda "Kongo Demokratik Respublikasi Uganda qarshi" ishlari misolida mazkur prinsipning qo'llanilishi va talqini tahlil qilingan. Tadqiqot davomida zamonaviy globallashuv sharoitida ichki ishlarga bevosita va bilvosita aralashuv shakllari, ularning xalqaro huquqiy bahosi ham ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida davlatlar tomonidan mazkur prinsipga rioya etishni kuchaytirish, xalqaro nazorat mexanizmlarini rivojlantirish hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** davlat suvereniteti, ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi, xalqaro huquq, xalqaro sud amaliyoti, xalqaro nizolar, hududiy yaxlitlik, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi, kuch ishlatmaslik prinsipi, globallashuv, xalqaro xavfsizlik.

**Abstract:** This article analyzes the principle of non-intervention in the internal affairs of states as one of the fundamental principles of international law. It examines the theoretical foundations of the principle, its legal закрепление in international legal sources, and its role in ensuring state sovereignty. The legal nature of the principle is раскрыто based on the Charter of the United Nations. The application of the principle is analyzed through international judicial practice, highlighting its relevance in modern conditions. The article also proposes practical recommendations.

**Keywords:** state sovereignty, non-intervention principle, international law, international judicial practice, territorial integrity, United Nations Charter, international security

**Аннотация:** В данной статье анализируется принцип невмешательства во внутренние дела государств как один из основных принципов международного права. Рассматриваются его теоретические основы, закрепление в международно-правовых источниках и роль в обеспечении государственного суверенитета. Правовая сущность принципа раскрывается на основе Устава Организация Объединённых Наций. Также анализируется практика международных судов и значение принципа в современных условиях. В заключении предлагаются практические рекомендации.

**Ключевые слова:** государственный суверенитет, принцип невмешательства, международное право, международная судебная практика, территориальная целостность, Устав Организация Объединённых Наций, международная безопасность.

### KIRISH.

Xalqaro huquqning zamonaviy tizimi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tinchlik,

barqarorlik va o'zaro ishonchni ta'minlashga qaratilgan fundamental tamoyillarga asoslanadi. Ana shunday muhim tamoyillardan biri — davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi bo'lib, u xalqaro huquqning umume'tirof etilgan - asosiy qoidalaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Mazkur prinsip davlatlarning suvereniteti, siyosiy mustaqilligi hamda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash huquqini hurmat qilish g'oyalari tayanadi va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni saqlashning muhim huquqiy kafolati hisoblanadi. XX asrda yuz bergan siyosiy qarama-qarshiliklar, davlatlarning ichki ishlariga tashqi aralashuvlar, hukumatlarni zo'rvonlik yo'li bilan almashtirishga qaratilgan urinishlar va mafkuraviy bosimlar xalqaro hamjamiyatni davlat suverenitetini mustahkamlash zarurligiga undadi. Natijada ichki ishlariga aralashmaslik g'oyasi xalqaro huquqning umumiy va majburiy prinsipi sifatida shakllandi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasi 7-bandida o'z ifodasini topdi. Ushbu norma bir davlatning boshqa davlatning siyosiy tizimi, davlat boshqaruvi shakli, iqtisodiy siyosati yoki ijtimoiy jarayonlariga bevosita yoki bilvosita aralashuvini noqonuniy deb e'tirof etadi. Bugungi globallashtirish sharoitida inson huquqlari, demokratiya, xavfsizlik va gumanitar masalalar bahonasida ichki ishlarga aralashuv holatlarining ko'payishi, axborot bosimi va siyosiy ta'sir o'tkazishning yangi shakllari mazkur prinsipning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipining mazmuni, huquqiy asoslari hamda xalqaro huquqda belgilangan istisnolarini chuqur va tizimli tahlil qilish xalqaro ommaviy huquq fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqola orqali davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligi prinsipining xalqaro huquqdagi o'rni, huquqiy va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, Xalqaro sud ishida bu prinsip yuzasidan ko'rilgan su qarori muhokamasi va amaliyotga tatbiq etish uchun asoslangan taklif taqdim etiladi.

**ASOSIY QISM.** Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari - xalqaro munosabatlar subyektlarining xalqaro hayotdagi to'plangan eng muhim masalalarni o'zida ifodalangan hamda umumlashtirilgan, umume'tirof etilgan yurish-turish normalaridir<sup>1</sup>. Xalqaro huquq va davlat suvereniteti. Olimlar, davlat va siyosat arboblari o'rtasida xalqaro huquq davlatlar mustaqilligini cheklab qo'yadi, degan qarash keng tarqalgan. Ularning fikricha, har qanday shartnomaning tuzilishi oxir-oqibatda shunga olib keladi. Bunday fikr, odatda, mustaqillikni mutlaq harakat erkinligi sifatida tushunishga asoslangan bo'ladi. Ayni paytda, «mutlaq» mustaqillikning mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki har doim bir davlatning mustaqilligi boshqalarining mustaqilligi bilan cheklangan bo'ladi. Ayni paytda, «mutlaq» mustaqillikning mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki har doim bir davlatning mustaqilligi boshqalarining mustaqilligi bilan cheklangan bo'ladi. Xalqaro huquq davlatlarning suverenitetini emas, balki ularning harakat erkinligini muayyan tartibga solib turadi, xolos<sup>2</sup> Dastlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasida mustahkamlangan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari keyinchalik "Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya" da o'z aksini topib, unda yetti prinsip asosiy prinsiplar sifatida e'tirof etilgan. 1975-yilga kelib esa xalqaro huquqning rivojlanishi va xalqaro munosabatlarda yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi natijasida mazkur prinsiplar tizimi yana uchta muhim prinsip bilan boyitildi. Ular davlat chegaralarining buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsiplari edi. Mazkur prinsiplarning xalqaro huquq tizimiga kiritilishi uning izchil takomillashib borayotganini, shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratila boshlanganini ko'rsatadi. Natijada xalqaro huquqning

asosiy prinsiplari soni o'ntaga yetdi va ular quyidagilardan iborat bo'ldi: kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi; davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi; davlatlarning BMT Nizomiga muvofiq o'zaro hamkorlik qilish majburiyati; xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi; davlatlarning hududiy daxlsizligi prinsipi; xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi; xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi prinsipi; davlatlarning suveren tengligi prinsipi; davlat chegaralarining buzilmasligi prinsipi; inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipi. BMT Nizomida davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi quyidagicha ifodalanadi: Ushbu Nizom Birlashgan Millatlar tashkilotiga har qanday davlatning aslida ichki vakolatiga kiradigan ishlariga aralashish uchun aslo huquq bermaydi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining A'zolaridan bunday ishlarni ushbu Nizom doirasida hal etishga kiritishni talab etmaydi; ammo ushbu prinsip VII bobga asosanib, majburiy choralar qo'llanishiga daxldor emas.

3. Mazkur prinsipni boshqa xalqaro hujjatlarda ham uchratish mumkin. Bularga Amerika davlatlari tashkiloti nizomining 18-moddasida, MDH nizomining 3-moddasida va boshqa hujjatlarni aytishimiz mumkin. 1998-yil qabul qilingan Xalqaro jinoyat sudi nizomining muqaddimasida shunday deyilgan: "Hech narsa nizomda biron-bir davlatga har bir davlatning ichki ishi sohasi hisoblangan qurolli mojaroga aralashish huquqini bermaydi". Mohiyatan agarda bitta davlatning geografik chegarasi doirasida sodir bo'layotgan, xavfsizlik va xalqaro barqarorlikda xavf solayotgan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga zid tarzda bo'lsa, ichki ishlariga taalluqli emas deb e'tirof etiladi. Ammo "ichki ishlar"i deb davlatning to'liq mustaqil tarzda hal etish huquqini (xalqaro kelishuvlardagi ishtiroki yoki har bir masalada o'zining mustaqil o'rniga pozitsiya) ega bo'lish) " tashqi ishlar deb tushunish ham mumkin.

4. Ya'ni davlat hududida yuz berayotgan hodisalar faqat u xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solmaydigan hamda xalqaro huquq normalariga zid bo'lmagan taqdirdagina ichki ishlar sifatida baholanadi, aks holda esa ular mutlaq ichki masala hisoblanmaydi. Bu prinsipga ko'ra, davlat hech qanday tashqi aralashuv yoki bosimsiz o'z siyosiy va iqtisodiy tizimini belgilash, tabiiy resurslari ustidan mustaqil tasarruf etish va ularni o'zlashtirish, soliq hamda boshqa majburiy yig'imlarni joriy etish, bojxona qoidalarini belgilash, shuningdek, xorijiy fuqarolarning o'z hududiga kirish tartibini mustaqil ravishda o'rnatish huquqiga ega. Davlatning ichki ishlariga aralashish sifatida, uning roziligisiz mazkur davlat hududiga yo'naltirilgan radio va televideniye orqali axborot tarqatishni tashkil etish ham e'tirof etiladi. Mazkur prinsipni buzish maqsadida davlatga nisbatan bosim o'tkazishga qaratilgan har qanday xatti-harakat xalqaro huquqqa zid hisoblanadi hamda bunday holatlarda davlatlar xalqaro tashkilotlar doirasida yakka tartibda yoki jamoaviy ravishda tegishli javob choralarini, jumladan repressaliya va kontrchoralarni qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Shuningdek, davlat hayotini internatsionallashtirish sharoitida ichki vakolatga taalluqli ko'p sonli barcha ishlar u yoki bu tarzda xalqaro-huquqiy tartibga solishning predmetiga aylanadi. Hozirgi davrda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari endilikda davlatning mutlaq ichki ishi sifatida talqin etilmaydi. Xususan, YXHKning 1991-yildagi Inson mezonlari to'g'risidagi Moskva kengashi hujjatida bu sohadagi davlatlar zimmasiga olingan majburiyatlar barcha ishtirokchi davlatlar uchun faqat ichki masala emas, balki bevosita va qonuniy manfaat doirasiga kiruvchi masala ekanligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, mazkur yondashuv boshqa davlatlarga inson huquqlari buzilishi bahonasida bevosita aralashish huquqini, jumladan ichki qurolli mojaroga yuzaga kelgan holatlarda kuch ishlatish orqali aralashishni anglatmaydi.

**Huquqiy asoslar:** BMT Nizomining 2-moddasi 7-bandi; Xalqaro Jinoyat sudining nizomining muqaddimasi; Amerika davlatlari tashkiloti nizomining 18-moddasi, MDH nizomining 3-moddasi; Yevropa Xalqaro Hamkorlik konferensiyasi 1991-yilgi Inson mezonini to'g'risidagi Moskva kengashining hujjati. Mazkur prinsip yuzasidan xalqaro sud amaliyotidan namunalarni tahlil qiladigan bo'lsak, **Xalqaro Sudning 1986-yildagi "Nikaragua AQShga qarshi" ishi (Military and Paramilitary Activities in and against Nicaragua)** 1980-yillarda AQSh Nikaraguaning Sandinista hukumatiga qarshi qurolli muxolif guruhlarini moliyalashtirish, qurol bilan ta'minlash va portlarda minalar qo'yish orqali faol yordam bergan. Nikaragua bu harakatlarni kuch ishlatmaslik va ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplarini buzish deb hisoblab, Xalqaro Sudga murojaat qilgan. Sud qarorida shuni aniqladi-ki, boshqa davlat hududida qurolli guruhlarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy yoki harbiy yordam ko'rsatish ichki ishlariga aralashuv hisoblanadi. Bu inson huquqlari yoki gumanitar sabablarga asoslangan aralashuvni ham qonuniy oqlamaydi. Hozir ham "Nikaragua ishi" xalqaro huquq nazariyasi va amaliyotida ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini talqin qilishda asosiy sud pretsedenti sifatida qo'llaniladi va ko'plab keyingi bahs-munozaralarda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu kabi keyslardan yana biri misol sifatida, Kongo Demokratik Respublikasi va Uganda keysini keltirish mumkin. Mazkur ish Xalqaro sud tomonidan 2005-yilda ko'rilgan. Sud 1998-yil avgustdan boshlab Uganda DRC hududini, jumladan, Ituri viloyatini ishg'ol qilganini aniqladi. Bu harakatlar Luanda shartnomasi doirasidagi cheklangan chegaradan tashqarida ruxsatsiz amalga oshirilgan edi. Ugandaning o'zini himoya qilish da'vosi rad etildi, chunki sud bu harakatlarda qurolli hujum shartining mavjud emasligini aniqladi. Sudning xulosasiga ko'ra, "Ugandaning noqonuniy qurolli aralashuvi shunday darajada va davomiylikka ega ediki, uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 2-moddasi, 4-bandi doirasidagi kuch ishlatishni taqiqlash tamoyilining og'ir buzilishi deb hisoblash mumkin". Shuningdek, Uganda DRC hududidagi tartibsiz kuchlarga qurolli, logistika, iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatgani ham sud tomonidan baholandi. ICJ bu harakatlarni qurolli kuch ishlatmaslik va ichki ishlariga aralashmaslik tamoyillarini buzish sifatida ko'rdi va shunday xulosa chiqardi: "Uganda Respublikasi DRC hududida faoliyat yuritayotgan tartibsiz kuchlarga qurolli, logistika, iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatish orqali xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik va ichki ishlariga aralashmaslik tamoyillarini buzdi". Bundan tashqari, sud Ugandani ishg'olchi kuch sifatida 1907-yilgi Gaaga reglamentlarining 43-moddasiga muvofiq, DRC hududida tartibni saqlash va mahalliy qonunlarni hurmat qilish majburiyatini bajarmaganligi bilan ham tanqid qildi. Ugandalik qo'shinlar tomonidan inson huquqlari va gumanitar huquq buzilishlari, jumladan tabiiy resurslarni talon-taroj qilish holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, resurslardan foydalanish bo'yicha hukumat siyosati mavjudligi sud tomonidan isbotlanmagan. Natijada, ushbu ish Xalqaro Sud tomonidan ichki ishlariga aralashmaslik, qurolli kuch ishlatmaslik va suverenitet tamoyillarining qanchalik muhim ekanligini yana bir bor tasdiqladi hamda davlatlarning boshqa davlat hududidagi harbiy va moliyaviy aralashuviga qat'iy cheklovlar qo'ygan. Xalqaro Sudning 2005-yilgi qarori ichki ishlariga aralashmaslik (non-intervention) tamoyilini aniq va keng qamrovli talqin qilishga xizmat qildi. Sudning xulosalariga ko'ra, aralashuv faqat to'g'ridan-to'g'ri qurolli invaziya orqali sodir bo'lishi mumkin emas; u tartibsiz guruhlariga qurolli, moliyaviy yoki logistika yordam ko'rsatish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday aralashuvlar mahalliy ichki mojarolarni kuchaytirib, beqarorlikka olib keladi. Ushbu tamoyil BMT Nizomining 2-moddasi va 7-bandiga muvofiq, davlatning ichki

yurisdiksiyasiga bosim o'tkazishni taqiqlaydi. Shu sababli, Uganda DRC suvereniteti va hududiy yaxlitligini buzgan deb topildi, zararni qoplash masalasi esa keyingi bosqichga qoldirildi. Sudning qarori ichki ishlariga aralashmaslik tamoyilini yanada kengaytirib talqin qildi: aralashuv nafaqat qurolli kuch bilan, balki boshqa vositalar orqali, masalan, tartibsiz guruhlarga qurolli, logistika, iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatish orqali ham sodir bo'lishi mumkin. Uganda DRC hududida tartibsiz kuchlarga ko'rsatgan yordami shu tamoyilni buzish sifatida baholandi: "Uganda Respublikasi DRC hududida faoliyat yuritayotgan tartibsiz kuchlarga qurolli, logistika, iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatish orqali xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik va ichki ishlariga aralashmaslik tamoyillarini buzdi". Natijada, ushbu qaror ichki ishlariga aralashmaslik tamoyilini faqat qurolli kuch ishlatishga emas, balki bilvosita aralashuvlarga nisbatan ham qo'llashni mustahkamladi. Shuningdek, u davlatlar uchun boshqa davlat hududidagi harbiy va moliyaviy yordamning huquqiy chegaralarini aniq belgiladi hamda okkupatsiya va mojarolar sharoitida tinch yo'l bilan muzokara orqali nizolarni hal qilish zarurligini ta'kidladi.

### **XULOSA**

Xalqaro huquq munosabatlariga kirishuvchi subyektlar uchun xalqaro huquq manbalariga muvofiq faoliyat olib borish muhimdir. Xalqaro huquqning manbalari orasida BMT Nizomining 2-moddasida mustahkamlangan yettita prinsipning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu prinsiplar davlatlarning huquqlarini yanada mustahkamlaydi, ularning suverenitetini himoya qiladi va xalqaro munosabatlarda tomonlarning teng huquqliligi, bir-birlariga nisbatan kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyilini ta'minlash orqali har bir davlatning ichki suvereniteti va hududiy yaxlitligi hurmat qilinadi, bu esa xalqaro tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. 2005-yilda Xalqaro Sud tomonidan ko'rilgan Democratic Republic of the Congo v. Uganda ishi ichki ishlariga aralashmaslik prinsipining amaliy ahamiyatini aniq ko'rsatdi. Sud Ugandaning DRC hududidagi qurolli harakatlari, jumladan Ituri viloyatidagi ruxsatsiz ishg'olini, shuningdek, tartibsiz guruhlarga qurolli, moliyaviy va logistika yordam ko'rsatishini tahlil qildi. Sudning xulosasiga ko'ra, bu harakatlar nafaqat DRC hududidagi suverenitetni va hududiy yaxlitlikni buzdi, balki xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini, jumladan qurolli kuch ishlatmaslik va ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplarini ham og'ir tarzda buzdi. Sud, shuningdek, Ugandaning o'zini himoya qilish da'vosini rad etdi, chunki qurolli hujum sharti mavjud emas edi. Sud Ugandaning harakatlarini BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandi doirasidagi kuch ishlatishni taqiqlash tamoyilining jiddiy buzilishi sifatida baholadi. Bu qaror aralashuvning faqat to'g'ridan-to'g'ri qurolli invaziya shaklida emas, balki tartibsiz guruhlarga moddiy, moliyaviy va logistika yordam ko'rsatish orqali ham sodir bo'lishi mumkinligini ochiq ko'rsatdi. Ugandalik qo'shinlar tomonidan inson huquqlari va gumanitar huquq buzilishlari, jumladan tabiiy resurslarni talon-taroj qilish holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, resurslardan foydalanish bo'yicha hukumat siyosati isbotlanmagan. Ushbu ishning xalqaro huquqiy ahamiyati shundaki, u non-intervention tamoyilini faqat qurolli kuch ishlatishga emas, balki bilvosita aralashuvlarga ham qo'llash mumkinligini mustahkamladi. Bu qaror davlatlar uchun boshqa davlat hududidagi harbiy, moliyaviy yoki siyosiy yordamning huquqiy chegaralarini aniqladi, shu bilan birga ichki mojarolarga aralashishning salbiy oqibatlarini xalqaro huquq doirasida tartibga soldi. Bundan tashqari, Xalqaro Sudning xulosalari davlatlarga boshqa davlat hududida nizolarni muzokaralar va diplomatik vositalar orqali hal

qilish zarurligini aniq ko'rsatdi, bu esa xalqaro barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Uganda – DRC ishi xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini, xususan ichki ishlariga aralashmaslik va suverenitetni himoya qilish tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qildi. Sudning qarori shuni ko'rsatadiki, davlatlar boshqa davlat hududidagi siyosiy, moliyaviy yoki harbiy aralashuv orqali o'z manfaatlarini ilgari surishga urinmasligi shart. Shu bilan birga, BMT Nizomining 2-moddasida mustahkamlangan prinsiplar davlatlararo munosabatlarda barqarorlik, ishonch va adolatni ta'minlash uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

**TAKLIFLAR.** Xalqaro huquqiy majburiyatlarni kuchaytirish orqali davlatlar BMT Nizomi va xalqaro sud qarorlariga muvofiq harakat qilishni majburiy qoidalarga amal qilinishiga erishish mumkin. Masalan, BMT Xavfsizlik Kengashi yoki boshqa xalqaro institutlar davlatlar tomonidan tartibsiz guruhlariga yordam berish holatini aniqlash va ogohlantirish funksiyasini kengaytirishi mumkin. Davlatlararo aralashuvni oldini olish - davlatlar boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslikni ta'minlash maqsadida BMT va mintaqaviy tashkilotlar orqali nazorat mexanizmlarini faol ishlatishi lozim. Masalan, qurolli va moliyaviy yordamni tartibsiz guruhlariga yetkazilishining oldini olish uchun xalqaro monitoring va hisobot tizimlari yaratish mumkin. Shunindek, davlatlararo nizolarni hal qilishda hamda davlatning ichida kuzatilayotgan nizolarga qurol yoki moliyaviy aralashuv o'rniga diplomatik vositalar, mediatsiya mexanizmlarini tavsiyaviy xarakterda taqdim etish ancha samarali yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu yo'l bilan nizolar tinch yo'l bilan hal qilinadi va hududiy suverenitet hurmat qilinadi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Saidov, A. X., va boshqalar. (2023). Xalqaro ommaviy huquq [Darslik]. Toshkent davlat yuridik universiteti. 105-bet
2. Rustamova, S. S. (2024). Xalqaro huquq va uning nizolarni hal qilish, tinchlik va barqarorlik ta'minlashdagi roli. *Modern Science and Research*, 3(11), 499–506. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14225970>
3. 1945-yil BMT Nizomi <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text?referrer>
4. Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva// Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2018. - 42-bet.
5. Mavlonov Feruz Oblaqulovich XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI VA ULARNING AHAMIYATI // JMBM. 2025. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-huquqning-asosiy-prinsiplari-va-ularning-ahamiyati>.
6. <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>
7. [https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/statement\\_25\\_2138](https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/statement_25_2138)
8. Xalqaro ommaviy huquq sud amaliyoti. O'quv-uslubiy qo'llanma (Keyslar to'plami). Y.f.d.prof. A. A.I.Umirdinov (VI VII VII IX X XIII XIV), A>A>Xakimov ( I>II.III IV V XI XII). - Toshkent.:TDYU nashriyoti. 2018. \_200 bet. 163-bet